

INSONLARNING IKKILANISH HOLATLARI VA ULARNING MOTEVATSIYALARI

Bozorova Ro'zigul Xurramovna

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonlardagi ikkilanish holatlarning sabablari, uni yuzaga keltiruvchi omillar hamda uning inson hayotidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, insonlarning ikkilanishni yengish bo'yicha motevatsiyaning ahamiyati haqida ham so'z boradi. Ijtimoiy hayotda motivatsiyaning muhim jihatlari haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ikkilanish, tafakkur, ong, motiv, emotsiya, appertsepsiya, simpatiya, antipatiya, illuziya, alturizm, stress, inson, hissiyot, idrok, iroda, qobiliyat, temperament, regetlik.

Annotation: This article talks about the causes of the situation in people, the factors that cause it and its place in human life. At the same time, it also discusses the importance of motivation in overcoming human ambivalence. Important aspects of motivation in social life are discussed.

Key words: Motivation, ambivalence, thinking, consciousness, motive, emotion, apperception, sympathy, antipathy, illusion, altruism, stress, human, emotion, perception, will, ability, temperament, reticence.

Аннотация: Рассказывается о причинах амбивалентности у людей, о помощи, возвращающей ее, и о ее месте в жизни человека. В нем также обсуждается важность мотивации в преодолении человеческой амбивалентности. Обсуждаются важные аспекты мотивации в социальной жизни.

Ключевые слова: Мотивация, амбивалентность, мышление, сознание, мотив, эмоция, апперцепция, иллюзия, альтруизм, стресс, человек, эмоция, восприятие, воля, способность, темперамент, регии.

Shaxs bo'lib rivojlanishda, avvalo, uning bolalikda qanday bosqichlarni bosib o'tishi katta ahamiyatga ega. Ba'zida insonlarning yoshi qanchaligidan qat'iy nazar ularning xulqida yoki biror-bir holatida ma'lum bir ikkilanishlarni sezib qolamiz. Yoshi katta insonlar ham biror qaror qabul qilishda yoki biror narsani tanlashda yoki biror bir ishni amalga oshirishda ikkilanib qolishadi. Bu ikkilanishlar ma'lum bir o'ziga bo'lgan ishonchsizlik holatining namunasidir. Bu holat esa, undagi bo'lib o'tgan ma'lum yoki noma'lum voqealiklar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Inson rivojlanar ekan, unda aqliy faoliyat

bilan birga ruhiy holat ham rivojlanib boradi. Ular chambarchas, bir-biri bilan mutanosib rivojlansa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ba'zida barcha narsa yetarli bo'lgan holatda rivojlangan insonlarda ham ulardagi ishonch yetishmay qolishi, ularning kelajakda qiynalib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. Bunday jarayonning oldini olish, ikkilanishni qanday bartaraf etish yuzasidan ko'plab savollar yuzaga keladi. Bu savollar esa, insonni o'ylantirib qo'yadi, lekin endi bolalikka qaytib bo'lmasa unga qanday yechim topish mumkin degan savollarni respondentlar ko'plab berishadi. Demak, bunday ikkilanishli holatlarning oldini olish bo'yicha hattoki, katta odamlar ham o'ylanib qolar ekan. Katta odamlarning ham bu savolga javob izlagisi kelar ekan, demak, biz o'sha holatning oldini olish uchun, avvalo, bolalikka murojaat qilamiz, bolalikka qaytamiz. Bolalikdagi barcha salbiy holatlarni ko'z oldimizga keltiramiz va o'tgan har bir salbiy holatlarning birma-bir yechimini topa boshlaymiz.

Barchasi deyarli yechimini topadi, ba'zilari esa yechimi topmaydi deb o'ylagan muammolar ham yana bir bor xotiradan o'tkazilib, hech bo'lmaganda unga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Shu sababli, insondagi har bir salbiy holatlarni yenga olmaslik ko'pincha, motivatsiyaning ham bo'lmasligidir. Motivatsiya insonni harakatga undovchi shunday kuchlar yig'indisidirki, unda shaxsning qiziqishlari, intilishlari, orzulari, istaklari, ehtiyojlari hamda bilish jarayonlari bilan hamohang bo'lgan hodisa hisoblanadi. Insondagi ana shunday qiziqishlarning inobatga olinmaganligi, ularga yaratilmagan shart-sharoitlar, ularni qo'llab-quvvatlanmaganligi, qobiliyatlarining cheklanib qo'yilganligi, ushbu qobiliyatning yuzaga chiqishi uchun sharoitlar bo'limganligi sababli cheklab qo'yilganligi ularning ikkilanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchning paydo bo'lishiga, ulardagi qayt'iyatsizlikka sabab bo'layotgan bo'lsa ajab emas. Shuningdek, bu inson qat'iyatsizlikda rivojlanishda davom etar ekan, u yoshi ulg'aysada bu ishonsizlik, bu umidsizlik, bu ikkilanish holatidan qutilolmaydi. Zero, shaxs bo'lib rivojlanishda o'n bir yoshgacha bo'lgan vaqt eng muhim davr sanaladi. Ana shu o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'zidagi barcha ishonch xususiyatlarini aynan shu davrgacha o'zlashtiradi. Bu haqida Abraham Maslau shunday deb aytib o'tadiki, bolalarga o'n bir yoshgacha e'tibor ularning kelajagini belgilab beradi. Ehtiyojlar peramedasi asoschisi Abraham Maslou bolalarni o'n bir yoshgacha xavfsizlik, sevgi, mehr-muhabbatga muhtoj bo'ladiki, bularning bittasining qondirilmasligi ham ularning butun hayotiga ta'sir etishi mumkin degan fikrni ilgari surgan. Shu sababli, bolalardagi bunday holatlarning oldini olish uchun har tomonlama ota-ona tadbirkor, o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. Ularning ma'naviyatidagi, ularning madaniyatidagi rivojlanishlarga yo'l qo'yilishi kerak. Buning uchun esa, ularning qiziqishlari bilan

qobiliyatlari hamoxang holda, ulardan katta natijalarni maqsad qilgan holda ularni qo'llab-quvvatlash lozim. Shunday holatlar ham ma'lumki, ba'zida bu ikkilanishlar ko'plab fojiali holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'ziga ishongan, ikkilanmaydigan, har bir yomon maqsad yo'lida hech narsadan qaytmaydigan insonlar ko'plab o'ziga ishonmaydigan, ikkilanuvchan, biror aniq fikr yurita olmaydigan insonlarning ishonchidan foydalanib o'z ta'sirini o'tkazadi. Ta'sirga tushib qolganda esa, hech ikkilanmay ular bu holatga ko'nishadi va ularning qo'lida tayyor qug'irchoq bo'lishadi.

Ushbu insonlarning hayotida ko'plab muammolar paydo bo'ladi. bunga qarshi ming kurash olib boradi, biroq qo'lida qo'g'irchoq qilayotgan insonlar ularni har xil yomon illatlarga o'rgatib, ularni iskanjaga olib bo'lgan bo'ladi. Shuning uchun, ularga qat'iyatlilikni shunchalar o'rgatish kerakki, o'z so'zida turuvchan, boshqalar fikriga qo'shilib ketib, ularning fikrlash doirasini anglab yetmay, noto'g'ri yo'llardan ketib qolishlariga yo'l qo'ymasligi lozim. Bolalar ongida shunday ruhiyat paydo bo'lishi kerakki, bu ruhiyat insonlarni kamolotga yetaklasin, Ushbu ruhiyat insonlarni shunchalar ilm olishga undaydiki, ba'zida biror bir ta'sir yuzaga kelganida emas, birovning ta'siri ostidagina emas, balki o'z-o'zidan kelib chiqqan holda ham biror natijaga erishish mumkin. Shu bilan birga, bolalardagi salbiy holatlar o'zini anglamaslik, o'zida ishonch bo'lmasligi, o'zida qat'iyatsizlik holatlarining amalga oshishini keltirib o'tish lozim. Bunday ko'rinishlar ko'pincha, insonning hayotiga ta'sir etadi va bu uning ich- ichida bo'layotgan o'z-o'zidagi nizolarning oqibatidir. Inson o'zi bilan o'zi nizoda bo'lar ekan, o'zini-o'zi tushunib o'zining dardini o'zi anglab yetmas ekan u ikkilanaveradi. U ikkilanavergan sari atrofida boshqa insonlarga ham ishonchsizlik holatlari va o'ziga ishonchsizlik holatlari yuzaga keladi. Biror-bir ish faoliyatida ishlaydimi yoki biror bir ishni amalga oshiradimi ular ko'pincha boshqalar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoladi. Shuning uchun, har bir jarayonni kuzatgan holda ularning, eng avvalo, irodaviy xususiyatlari, ulardagi qat'iyatlilik, ishonch holatlarini yo'qolmasligini ta'minlash lozim. Inson ko'pincha amalga oshirayotgan har bir narsa ularning taqdirini belgilab berishi mumkin. Masalan, ularning ta'lim olish jarayonidagi holatini yoki ta'limga bo'lgan qiziqishi yoki uning qay darajada amalga oshirilish jarayonlari insonni shunchalar harakatga undaydi-ki, bunda ular bu faoliyatni o'z qiziqishlari bilan amalga oshirayotgan bo'ladi, shuningdek, bajarilayotgan hatti-harakatlar inson hayotidagi faoliyat bilan birga amalga oshadi. Har bir faoliyatda insonning motivatsion tafakkuri bo'lgan holda aniq maqsadlari birgalikda bo'lgan yaxshi.

Maqsadsiz inson biror-bir narsaga erisha olmaydi. Maqsadi yo'q inson go'yoki, boshqa bir jonzoatlardan farqi qolmaydi. Bunday insonlar juda sust

hisoblanib, ularning negativligi butun hayotiga ta'sir etishi mumkin. Ammo, inson bu ishonchsizlikni qayerdan oladi, bu ikkilanishni qanday o'zlashtiradi degan savollar bisyor ekan, ularda avvalo bolalikdagi holatlarning muhimligini yana bir bor aytib o'tish lozim. Biroq endi insonlar ulg'aydi, endi ularning ikkilanish xususiyatlarining yechimi yo'qmi deb o'ylagan savollarga biz yuqorida javob qaytargan edik. O'sha bolalikdagi muammolarda boshidan kechirgan har bir ko'ngilsiz voqealarni birma-bir tahlil qilgan holda inson ishonchini qaytarib olishim mumkin. Bunda esa, eng yaxshi tinglovchiga muhtojdir. U inson psixologga murojaat qilishi lozim. Chunki, o'sha inson ikkilanayotgan insonning o'sha boshidan kechirayotgan salbiy xususiyatlarini tushuna olishi lozim hisoblanadi. Agar bunday bo'lmasa, ya'ni agar u inson o'zini qiynayotgan narsalarni noto'g'ri insonga aytishsa, bu salbiy holatlar aytilgandan keyin undan ham katta salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hayotdan ko'ngli qolishlik, qayta stress, depressiya, abuliyasi kabi. Shuning uchun, o'z ishinings ustasi bo'lgan psixolog ushbu muammolarning har biri aytilganda shunday tahlil berish kerakki, hatto uning yechimi bo'lmagan taqdirda ham muammo ongsizlikka o'zgarsin.

Psixologiyada shunday gap borki, muammo muammo emas, muammoga bo'lgan munosabat muammo. Bu muammolar zahirida esa, undagi bolalik paytdagi muammolar va unga topilmagan yechimlar yotadi. Ulg'ayib borgan sayin bu holatlar tuzalmay aksincha rivojlanib boradi. Chunki, bu holat bolalikda yechimga ega bo'lmagan, bolalikda bu holatning oldi olinmagan. Ba'zida insonlar shunday hayot kechirishadiki, uning oqibatini o'ylab ko'rishmaydi, bu ham yrtmagandek, farzandlariga ham shunday bee'tibor munosabatda bo'lishadi va ularning kelajakda qanday inson bo'lishini xayollariga ham keltirishmaydi. Biroq, bolalikdagi har bir holat ularning ulg'ayishdagi jarayonlariga mutlaqo ta'sir etadi. Inson rivojlanib borar ekan, u avvalo, qat'iyatlik, irodaviy xususiyatlar bilangina rivojlanishi kerak. Shuning bilan birga, ishonch tuyg'usining ham ortib borishi maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, bolalardagi har bir holatni kuzatib borish, ulardagi ikkilanish holatlarining oldini olish juda ham muhim sanaladi. Insonning shaxs bo'lib rivojlanishida bunday holatlar eng muhim hisoblanadi. Bu holatlar keng ma'noda farzandlar kelajagini belgilab beruvchi asos hisoblansa ajab emas.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Bo'riyev, O'zbek oilasi tarixi – Toshkent 1995
2. E.E.G'oziyev, Umumiy psixologiya – Toshkent 2002
3. The Role of parental Psychology in the Formation of a Partecular Relegious bellefs in a child. SH.Xudoyqulova, M.Saydaliyeva – Eurasion Scientific Herald – 2023
4. X.G.SHarafuddinova, Umumiy psixologiya – Toshkent 2022
5. F.Abdurahmonov, Z.Abdurahmonova, Din psixologiyasi – Toshkent 2011
6. Abdurauf Fitrat, Oila risolasi – Toshkent 2000